



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA QIRG‘IZISTON RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI HAMKORLIK

Abduraufov Qodiroxun Abdulaziz o‘g‘li

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Abdullayev Bekzod Xusniddin o‘g‘li

O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi

Abstrakt: O‘zbekiston dunyodagi okeanga chiqa olmaydigan davlatlar qatoridan o‘rin olgan bo‘lib, qizig‘i unga qo‘shni bo‘lgan davlatlar ham ochiq okean havzasiga chiqa olmaydi. Shu sababli ham, O‘zbekiston qo‘shni mamlakatlar bilan yaxshi diplomatik aloqalarni o‘rnatishga harakat qiladi. Bular orasida sharqiy qo‘shni Qirg‘izistonning ahamiyati katta.

Kalit so‘zlar: Diplomatiya, savdo, logistika, hamkorlik, temir yo‘l, tranzit.

Abstract: Uzbekistan is one of the landlocked countries in the world, and what is interesting is that its neighboring countries also cannot access the open ocean basin. For this reason, Uzbekistan tries to establish good diplomatic relations with neighboring countries. Among them, the eastern neighbor of Kyrgyzstan is of great importance.

Key words: Diplomacy, trade, logistics, cooperation, railway, transit.

Аннотация: Узбекистан является одной из стран мира, не имеющих выхода к морю, и что интересно, соседние страны также не имеют доступа к бассейну открытого океана. По этой причине Узбекистан старается установить хорошие дипломатические отношения с соседними странами. Среди них большое значение имеет восточный сосед Кыргызстана.

Ключевые слова: Дипломатия, торговля, логистика, сотрудничество, железная дорога, транзит.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi diplomatik aloqalarni keng ko‘lamda dunyoning barcha mamlakatlari bilan o‘rnatgan. Biroq qo‘shni mamlakatlar bilan diplomatik, savdo va iqtisodiy aloqalar bu o‘rinda alohida katta ahamiyatga ega. Shu o‘rinda xalqimizning qo‘shni xalqlar bilan madaniy, siyosiy, etnik jihatdan yaqinligi, hamda ushbu xalqlar orasida yaqin qarindoshlik aloqalarining mavjud ekanligi, ushbu davlatlarning o‘zaro yaqin va mustahkam aloqalarni o‘rnatishiga yordam beradi.



Ayniqsa O‘rta Osiyo “marvaridi” hisoblangan Farg‘ona vodiysi uchun Qirg‘iziston va Tojikistonning ahamiyati katta. Shu jumladan yaqin-yaqin vaqtlardan boshlab Qirg‘izistonning logistik ahamiyati butun O‘zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Buning sababi esa O‘zbekiston va Xitoy hamda Qirg‘iziston o‘rtasidagi savdo-sotiqning hajmi ortgani, Xitoy uchun quruqlikda, uni Yaqin Sharq bilan bog‘laydigan xavfsiz savdo yo‘llariga ehtiyoj paydo bo‘lgani bilan ifodalanadi.

NATIJA

Ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama hamkorlik, ikki davlat o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro yordam haqida shartnoma asosida yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayevning O‘zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda 1992- yil 29-sentabrda Islom Karimov va Askar Akayev tomonidan imzolangan edi [1]. 1992-yil iyulda Toshkentda Qirg‘iziston elchixonasi ochilgan bo‘lsa, 1998-yil oktabrda esa Bishkekda O‘zbekiston elchixonasi faoliyat yurita boshladi.

Islom Karimovning 1993-yilda Qirg‘izistonga qilgan tashrifi davomida 1994-2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to‘g‘risida bayonot imzolandi. I. A. Karimov 1994-yil 16-yanvarda, 2000-yil 26-27-sentyabrda, 2007-yilda hamda 2013-yilda Qirg‘izistonga tashrif buyurdi.

Askar Akayev esa 1992, 1996, 1998-yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Kurmanbek Bakiyev 2006-yil, Almazbek Atambayev 2017-yilda, Sooronboy Jenbekov 2017-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2017-yildan boshlab O‘zbekiston Qirg‘izistonni “China-Kyrgyzstan-Uzbekistan” temir yo‘lini qurish masalasida kelishishga undashni boshlaydi. Shundan so‘nggina Qirg‘iziston vakillari uzoq qaysarlik yo‘lidan qaytdilar. Ushbu masalada 2019-yil O‘zbekiston tashabbusi bilan muloqot ishiga Turkiya qo‘shildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ushbu harakatlaridan so‘nggina 1992-yildan beri muzlab kelayotgan, ushbu loyiha qayta jonlandi [2].

2023-yil 27-yanvarda O‘zbekiston Prezidenti va Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov o‘rtasidagi muzokaralar davomida, o‘zaro savdo hajmi 1,3 milliard dollarga yetgani, 300 dan ziyod qo‘shma korxonalar tashkil etilgani ta’kidlandi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasi loyihalari amalga oshirilayotgani va O‘zbekiston-Qirg‘iziston taraqqiyot fondi aniq loyihalarni moliyalashtirishni boshlaganiga alohida urg‘u berildi.

Biznes-forum doirasida umumiy qiymati 1,6 milliard dollarlik salmoqli shartnomalar to‘plami imzolanganini esa tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning uzoq



kelajakka mo'ljallanganini bildiradi. Bundan tashqari, bunday forumlar bo'lib o'tishi tomonlarning o'zaro ishonchining ham yuqori ekanini ko'rsatadi.

Sanoat kooperatsiyasi doirasida qariyb 500 million dollarlik yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish taklif qilindi. Avtomobillar, zamonaviy maishiy texnika, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, foydali qazilmalarni birgalikda qazib olish va qayta ishlash shular jumlasidan.

Mamlakatimiz yetakchisi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash doirasida qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashni hamkorlikning muhim yo'nalishi sifatida qayd etdi.

Intensiv bog'lar va issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish, kartoshka, meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini yetkazib berish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va boshqa qo'shma loyihalarni ishga tushirishga qaratilgan agrokooperatsiya dasturini amalga oshirish shu maqsadlarga xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi sheriklik va to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kengaytirish muhimligini ta'kidladi.

Transport va logistika sohasidagi hamkorlik strategik ahamiyatga ega ekani qayd etildi. "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temir yo'lini qurish bo'yicha ishlarni faollashtirish, "Andijon-O'sh-Irkishtom" avtomobil yo'lining salohiyatini to'liq ishga solish, shu maqsadda qo'shma transport-logistika kompaniyasini tashkil etishga kelishib olindi.

Muzokaralarda energetika sohasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi. Hidroenergetikadagi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan Qambarota GES-1 qurilishi borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlarni jadallashtirish zarurligi qayd etildi.

Chingiz Aytmatovning 95 yilligini keng nishonlash, O'shda Bobur nomidagi O'zbek musiqali drama teatrining ochilishida birgalikda spektakl namoyish etish, ziyolilar va yoshlarni faol jalb qilgan holda yangi format – Avlodlar muloqotini tashkil etish, talabalar spartakiadasi, qo'shma festival va konsertlar, ijodiy tadbirlarini o'tkazish taklif qilindi.

Xulosa

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oxirgi yillarda jadal rivojlanib borayabdi. Bunga esa tomonlarning savdo-sotiqdan yaxshi daromad olishi, hamda o'zaro ishonchli qo'shni ekanliklari sabab.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston Tarixi. – T.: Akademnashr 2019. –B 550.
2. Omadjon Tavakkaljon ugli Kodirjonov, & Khusanboy Madaminjonovich Muminov. (2024). LOGISTICS OPPORTUNITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN WHY FOR CHINA?. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 261–264. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/997>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5844>